



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)
2022



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Омилхон ИСМАЙЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizmatasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУПТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantirish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar	52
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	55
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошланғич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda laboratoriya xonalarini tashkil etish	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА. Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошланғич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошланғич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi	100
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	105
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiyot tili va tibbiy matnlarning psixolingvistik xususiyatlari	111
Илона ИСПАЙЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalanishi.....	124
ANIQ VA TABIIY FANLAR	127
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiy tahlili	127

Perdexan SALIYEVA

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi
xodimlarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish hududiy markazi
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari" kafedrasida katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA UCHRAYDIGAN AYRIM MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Maqolada boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmaydigan o'quvchilar shaxsi xususiyatlarini chuqur o'rganish, to'liq o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va tahlil etish turli pedagogik sharoitlarda qiyinchiliklarni bartaraf etish, o'zlashtirmaslikning oldini olish, o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash to'g'risida.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagog, boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'zlashtirmaslik.

В статье проводится углубленное изучение личностных особенностей неассимилируемых учащихся начальных классов, выявление и анализ причин неполной ассимиляции, устранение трудностей в различных педагогических условиях, профилактика неассимиляции, воспитание положительного отношения к обучению.

Ключевые слова: образование, педагог, начальный класс, ученик, неуспеваемость.

In the article, an in-depth study of the personality characteristics of non-assimilating students in primary grades, identification and analysis of the reasons for incomplete assimilation, elimination of difficulties in various pedagogical conditions, prevention of non-assimilation, education of a positive attitude towards learning.

Keyword: education, pedagogue, primary class, student, lack of mastery.

Kirish. Ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida o'tgan yillar mobaynida, o'quvchi shaxsiga individual yondashuvga erishildi, boshlang'ich ta'limga e'tibor kuchaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish, uning samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashga oid keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Shunday ishlar amalga oshirilishiga qaramay har bir sinfdagi o'zlashtirmovchi o'quvchilar mavjud. Bunday o'quvchilarning nafaqat o'zlarining bilish jarayonlari orqada qolib balki bevosita tengdoshlarining ham o'zlashtirishlariga va bilim asoslarini egalashlariga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlash, o'rganish va uni korreksiya qilish o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonini jadallashishi natijasida, ta'lim sohasida o'zlashtirish xususida keng fikrlar bayon etilmoqda. Bunda o'quvchilarning o'zlashtirishlariga to'xtalar ekanimiz: - "O'zlashtirish" tushunchasi bu - o'z mohiyatiga ko'ra jamlangan katta muammo bo'lib, u jamiyatning madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy-siyosiy tarbiyalanganligi, maktab o'qituvchilarining zamonaviy o'qitish tamoyillari, vositalari, usullari bo'yicha atroficha bilimga ega ekanliklari, yoshlarning o'qish o'rganishga ishtiyoqmandligi

bilan uzviy bog'liq hodisadir. Aniqlanishicha har bir alohida olingan o'zlashtirmovchilikning vujudga kelishi sababi har xil bo'lib chiqdi. Albatta bu shaxsning individual xususiyatlari, oila muhiti, geni atrofdegilar bilan munosabatlarining xususiyatlariga bog'liqdir. Bu borada olimlarimiz tinimsiz izlanishlar olib bormoqda. Jumladan mashhur psixolog P.P. Blonskiy "qiyin o'quvchilar" asarida psixik va jismoniy tayyorgarlikning turli xususiyatlarining birikuvini tiplarga ajratgan. o'zlashtirmaslikka olib keladigan asosiy sabablarni ajratib ko'rsatgan. Birinchidan, o'zlashtirmaslik o'quvchi sog'ligiga bog'liq, ikkinchidan o'zini to'g'ri tashkil eta olmaslik, uchinchidan o'qishga qiziqishning yo'qligi, to'rtinchidan, o'quvchining bo'yi rivojlanmaganligi deya e'tirof etadi va uning taqiqotlari o'zlashtirmovchi o'quvchilar muammosini o'rganishda muhim hissa bulib qo'shildi. Yana bir psixologimiz tomonidan bildirilgan fikrlarda o'quvchi o'zlashtirmasligi bir necha guruhlariga bo'lib o'rganilgan. Jumladan; o'qishga nisbatan noto'g'ri munosabat shakllanganlar; dars topshiriqlarini qiyinchilik bilan o'zlashtiruvchilar; bilim olishga ko'nikmalari shakllanmaganlar deb etirof qilgan.

Yana bir tadqiqotda o'zlashtirmovchi o'quvchilar diqqati, xotirasi faoliyatida quyi ko'rsatgichlar kuzatilishi bu psixik jarayonlarida

patologik o'zgarishlarning natijasi emas, balki to'g'ri ishlash malaka va odatlarining mavjud emasligi o'z isbotini topgan deb xisoblangan bo'lsa, ayrim olimlarimiz tafakkur faoliyati xususiyatlari, shaxsning yo'nalishiga e'tibor beish kerak deb ta'kidlaydi.

Natijalarga to'xtaladigan bo'lsak o'zlashtirmovchilarda aqliy masalalarni yechishda "mahsuldor bo'lmagan yondashuv" vujudga keladi. Tadqiqotlarimiz jarayonida shuning guvohi bo'ldikki, bunday o'quvchilar ya'ni o'zlashtirmovchilar guruhi uchun o'qishdagi muvaffaqiyatsizlik axloqiy nizo manbai hisoblanmaydi. Ular: "Men masalani yecha olmayman", "Men uchun ona tili qiyin", "Men bajara olmayman", "Bu men uchun qiyin, yeplay olmayman" deb shunchaki o'ylab ham o'tirmasdan aytadilar. Shu bilan birga ularga maktabda o'zlashtiriladigan har qanday bilimlarga nisbatan qiziqishning yo'qligi xos bo'lib, ular kelajak rejalarini o'qishi bilan bog'lamaydilar. Aksariyat hollarda bu yalqovlik, erkalik, tantilik mahsuli xudbinlikka aylanayotganidan dalolat beradi.

O'zlashtirmovchi o'quvchilarning ikkinchi tipiga kiruvchilarda tafakkur faoliyatining yuqori sifati o'qishga nisbatan salbiy munosabat bilan birikadi. Bunday o'quvchilar maktabga yaxshi tayyorlanib, yaxshi o'qish istagi bilan kelishadi. Ammo, ularning o'quv faoliyati sifatiga, faqat o'zlariga yoqqan narsa bilan shug'ullanishiga o'rganib qolishi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'quvchilarda ta'lim jarayonida o'z-o'zini boshqarish u yoki bu fan unga yoqish, yoqmasligiga bog'liq bo'ladi, yana bir muammo ustozlarini yaxshi ko'rmasligi, ulardan qanoatlanmaslik, kuchli e'tibor talabliligi bilan izohlanadi. Bu holatda ichki nizolar vujudga keladi. Bunday nizo intellektual imkoniyatlarning o'quv ishlarida kam ruyobga chiqarilishi tufayli sodir buladi. Agar bunday nizo ta'limning dastlabki bosqichlarida vujudga kelsa, faqatgina o'qishga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltiribgina qolmay, balki o'quvchining sinf jamoasidan begonalashuviga ham olib keladi. Natijada bir qator salbiy axloqiy sifatlarining vujudga kelishiga olib keladi.

Pedagog olimlarimiz fikricha, zamonaviy o'qituvchi faoliyatida bolalarning o'zlashtirishiga to'sqinlik qiladigan qator omillar mavjud: bolalarni o'quv jarayoniga qiziqitira olmaslik, ta'lim jarayonining dolzarb muammolarini ko'ngildagidek hal qila olmaslik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ta'lim tamoyillarini amalga oshira olmaslik kabilar. Bunday kamchiliklar qatoriga bolalarga shaxs va individual jihatdan yondosha bilmaslik, to'liq o'zlashtirmaslik sabablarini ajrata olmaslik, ta'limni turli usul va vositalar yordamida

to'liq amalga oshirmaslik, o'quvchilarni ko'ngliga yo'l topa olmaslikni ham kiritish mumkin.

Butun jahon olimlari qatori bizning o'zbekistonlik olimlar ham bu muammo ustida ishlab o'zlashtirmaslik muammosini chuqur tahlil qilib o'z fikr-mulohaza takliflarini bildirishgan.

Atoqli fan arbobi, psixolog M.G.Davletshin bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq deb hisoblaydi. Bunda nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi ham muhimdir. Bolaning maktabga ijtimoiy moslashuvining qiyin kechishi ta'lim jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, aynan shu davrdan boshlab, o'quv materiallarini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari; bu aqliy taraqqiyot va uquvchanlikning birmuncha orqada qolishiga bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Nukus davlat pedagogika instituti psixologi Z.Sh.Sherimbetova boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganib, o'zlashtirmovchi o'quvchilar psixokorreksiyasi va psixoprofilaktikasi bo'yicha mashg'ulotlar va chora tadbirlar tizimini ishlab chiqdi. Z.Sherimbetova kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zlashtirmaslikning vujudga kelishi bilish jarayonlaridan diqqat, xotira tafakkurning nisbatan quyi rivojlanganligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalarda o'zlashtirmaslikning vujudga kelishiga ularda ijobiy o'quv motivatsiyasi yetarlicha shakllanmaganligi hamda ota-onalarning o'z burchlarini anglamasliklari ham asosiy omil sifatida e'tirof etadi.

Ushbu muammoni tadqiq etgan pedagog-psixologlar o'quv jarayonida namoyon bo'ladigan o'zlashtirmovchi o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga, ular o'quv faoliyatining o'ziga xosliklarini aniqlashga e'tibor qaratadilar. Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar ko'p kasal bo'luvchi o'quvchilar, bolalar organizmi darmonsizligi tufayli ishga va o'qishga qobiliyatlari pasayishini hisobga olishadi. Biron narsadan qattiq qo'rqqan bolalarda asabiylashish alomatlari, duduqlanish holatlari uchraib turadi. Demak, bunday bolalar bilan o'qituvchi maxsus shug'ullanishi tavsiya etiladi. Hozirgi paytda o'quvchilar o'zlashtirmasligiga bolaning psixik taraqqiyotdan vaqtincha orqada qolishi, xulq – atvorning buzilishi, sog'ligidagi kamchiliklar va nutqning rivojlanmaganligi kabi omillar ham sabab bo'ladi degan xulosaga keldik. Shuningdek, o'quvchi intellektining yetarli darajada

54 rivojlanmaganligi, xotiraning zaifligi, tafakkur taraqqiyotidagi kamchiliklar, ta'sirchanlik, izzattalablik, diqqatning beqarorligi ham o'quvchi o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida o'quvchilar o'zlashtirmasligini keltirib chiqaruvchi qator pedagogik omillar ham mavjud bo'lib, bunga ijtimoiy muhitdagi axborot oqimining haddan ziyod ko'pligi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning beqarorligi, oilada nizoli vaziyatlarning mavjudligi hamda ota-onalarning farzandlariga moddiy ta'minotchi nuqtai-nazaridan munosabatda bo'lishining kuchayib ketayotganligini kiritish mumkin.

Mahoratli o'qituvchilar o'quvchi o'zlashtirmasligining individual sabablarini aniqlashga harakat qiladilar, ular bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazdilar. Ba'zi o'qituvchilar sababini o'rganmasdan o'zlashtirmovchi o'quvchilarni "qobiliyatsizlar", "aqli yetishmaydiganlar" safiga kiritib qo'yadilar, tez orada o'qituvchilar bunday o'quvchilarga e'tibor bermay qo'yadilar. Buning natijasida bunday o'quvchilarda maktabga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Bu hollarda "o'zlashtirmovchi" o'quvchilarning bilish faoliyatlari rivojlantirilsa, individual shug'ullanilsa, umumta'lim maktabida bimalol o'zlashtiruvchi o'quvchilar qatorida bo'la oladi. Bugungi ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini to'la ishga solish, o'quvchini tabiiy qobiliyatlarini hisobga olishni talab etmoqda.

Ma'lum bo'lishicha, boshlang'ich sinf yoshidagi bola bilan ishlayotgan pedagog avvalo o'quvchining darsdagi faolligi yoki nafaolligi sabablarini aniqlashi, kechiktirib bo'lmaydigan masala bo'lib, jarayonni tezlik bilan o'rganib tahlil qilishi va tegishli chora tadbirlar ko'rish zarur. Bu esa o'quvchini o'zlashtirmaslik kabi muammoga duch kelmasligini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida tan olish, ularining individual xususiyatlarining o'ziga xosligini o'rganish, o'qituvchi vaqti-vaqti bilan o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ota-onalar bilan muhokama qilib turish, zarur hollarda o'zlashtirmaslik muammosi bo'yicha pedagogik-psixologik maslahatlar tashkil etib turish maqsadga muvofiq.

Bugungi kun pedagogiga o'zlashtirmaydigan o'quvchilar shaxsi xususiyatlarini chuqur o'rganish, to'liq o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va tahlil etish turli pedagogik sharoitlarda qiyinchiliklarni bartaraf etish, o'zlashtirmaslikning oldini olish, o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Demak, biz pedagoglar jamoasi ishni o'quvchilarni sevish, ajratmasdan bir hil munosabatda bo'lish, ularning har biriga alohida e'tibor berishdan boshlashimiz, o'z kasbimizning nafaqat bilimdoni balki yetuk mutaxassisiga aylanishimiz, kasbimiz va jamiyatimiz oldidagi ma'suliyatimiz, majburiyatimizni oshiradi.